O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI
ELLIKQAL’A TUMANI
HOKIMI QARORI

ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ
QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ
ELLIKQALA RAYONÍ
HÁKIMI SHESHIMI

2022 - yil 22 - iyul 214-13-194-Q/22 Ellikqal’a tuman hokimligi

Ellikqal’a tumanida transport harakati xavfsizligini ta’minlash maqsadida tegishli yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunning 7-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga muvofiq

QARORQILAMAN:

1. Ellikqal’a tumanida piyodalar va transport vositalarining harakat xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida, Ellikqal’a tumani Bo‘ston shahri hududidagi 4к51a Bo’ston sh.-Qirqqizobod OFY 0-16 km avtomobil yo‘lining 0,7-kmda 3.27 “To‘xtash taqiqlangan” yo‘l belgisini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

2. Ellikqal’a tuman IIBYXXB (N.Allamov), tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (T.Raxmanov) mazkur qarorning 1-bandida ko‘rsatib o‘tilgan manzilga 3.27 “To‘xtash taqiqlangan” yo‘l belgisini o‘rnatilishini ta’minlasinlar va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

3. Mazkur qaror “Davrko‘zgusi” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Jarasbaev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **S.S.Avezov**